


## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-mart oylarida 2119,3 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **2584,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **121,9 %**), Jomboy tumanida **2407,7** ming so'mni (**113,6 %**) tashkil etgan. Boshqa hududlarga nisbatan Qo'shrabot tumanida **1784,9** ming so'mni (**84,2 %**), Payariq tumanida **1752,7** ming so'mni (**82,7 %**), Narpay tumanida **1738,1** ming so'mni (**82,0 %**), Paxtachi tumanida **1612,0** ming so'mni (**76,0 %**), viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmogda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2020 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz, % da)



■ Viloyatga nisbatan hududlar kesimida, foizda

## Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)*

	2019 yil yanvar-mart	2020 yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1725,3</b>	<b>2119,3</b>	<b>122,8</b>
Samarqand sh.	2003,1	2584,0	129,0
Kattaqo'rg'on sh.	1688,0	2025,8	120,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1496,9	1793,9	119,8
Bulung'ur	1583,3	1869,7	118,1
Jomboy	2092,8	2407,7	115,0
Ishtixon	1584,7	1846,8	116,5
Kattaqo'rg'on	1493,7	1783,9	119,4
Qo'shrabot	1477,4	1784,9	120,8
Narpay	1444,0	1738,1	120,4
Payariq	1457,8	1752,7	120,2
Pastdarg'om	1549,2	1883,5	121,6
Paxtachi	1481,3	1612,0	108,8
Samarqand	1480,9	1791,2	121,0
Nurobod	1626,8	2000,5	123,0
Urgut	1813,6	2069,0	114,1
Tayloq	1502,2	1830,3	121,8

➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3288,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 46,1 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2399,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 35,0 % ga oshdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1834,1 ming so'mni tashkil qildi va 2019 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 19,7 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1766,4 ming so'mni tashkil qildi va 2019 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 33,4 % ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2378,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 35,8 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4260,9 ming so'mni tashkil qildi va 2019 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 30,4 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2023,8 ming so'mni tashkil qildi va 2019 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 20,7 % ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1786,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 29,0 % ga oshdi.


➤ **San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1683,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 21,2 % ga oshdi.



➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2119,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 28,6 % ga oshdi.

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2020 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz, ming so'm)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020-yil 1-fevraldagi **679330,0** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdorda oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
(71) 230-85-36